

## O‘ZBEKISTONDA OILA INSTITUTINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY MAVQEI YUKSALISHINING YANGI BOSQICHI (2017-2021 YILLAR MISOLIDA)

*Murtazoyeva Muxarram Erkin qizi*  
*Buxoro davlat Pedagogika instituti*  
*Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti*  
*3MIG ‘-22 guruh talabasi*

**Annotatsiya.** Oila – bu jamiyat taraqqiyoti bilan parallel rivojlanib boruvchi, unga kuch quvvat baxsh etuvchi, uning taraqqiyotiga yo‘nalish beruvchi eng muhim institutdir. Mustahkam oilalar xalq, jamiyat va davlatning taraqqiyoti uchun eng muhim omildir. Sog‘lom oilalarning mavjudligi jamiyat ravnaqi uchun sog‘lom muhitni shakllantiradi. Shuning uchun mamlakatimizda oilaga katta e‘tibor berilib, uni qanday mustahkamlash, oila a‘zolari o‘rtasida sog‘lom munosabatlarni shakllantirish, komillik tarbiyasi, oilaviy nizolarni bartaraf etish, bir so‘z bilan aytganda oila institutining barcha muammolariga jiddiy e‘tibor qaratilgan. Oila institutiga dunyoning hech bir mamlakatida bizning davlatimizdagidek jiddiy e‘tibor qaratilmagan. 2020 yilning 18 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi faoliyatini tashkil etish tog‘risida”gi qarori oila institutini mustahkamlash yo‘lida yana bir muhim qadam bo‘ldi. Qonunchiligimizda alohida Oila kodeksining mavjudligi oilaviy munosabatlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy amaliy tadqiqot markazining faoliyat olib borishi oila davlatimiz siyosatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida e‘tirof etilishidan dalolat beradi.

**Kalit so‘zlar:** Oila, Inson qadri, Fuqorolik jamiyati, Ma‘rifatparvar davlat, Harakatlar strategiyasi, (FHDYO).

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlab aytganlaridek: “Oila – bu mehr va baxt qo‘rg‘oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne‘mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma‘naviyat bor. Oilaviy baxt bu – eng ulug‘ saodatdir. Mashhur qo‘shiqlardan birida aytilganidek, “Uyida baxti borlar – har yerda baxtiyordir”<sup>1</sup>. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 18 fevral kuni “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni imzoladi<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2021 yil 7 mart, №48 (7828).

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari

Farmonga muvofiq, har bir mahallada “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizim joriy etiladi.

Farmon bilan **O‘zbekiston Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash** vazirligi hamda uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo‘linmalari tashkil etildi.

Jamiyatda “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilining to‘laqonli va samarali joriy etilishida har tomonlama ko‘maklashish, oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish vazirlikning asosiy vazifa va faoliyat yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Farmonga ko‘ra, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi va vazirlik tuzilmasiga o‘tkaziladi.

Bundan tashqari, farmonga ko‘ra, 2020-yil 1-apreldan boshlab, **fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi tasarrufiga o‘tkazildi.**

Bunda, agentlikka FHDYO organlarining ishini tizimli nazorat qilish, malakali kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, huquqni qo‘llash amaliyotini muvofiqlashtirish, “FHDYOning yagona elektron arxivi” axborot tizimini yuritish va FHDYO organlarining hududiy arxivlariga rahbarlik bo‘yicha funksiyalar yuklanadi<sup>3</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Prezidentimizning 2018-yil 2-fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan tashkil etilgan. Markaz o‘z faoliyatida, avvalo, “Sog‘lom oila – sog‘lom jamiyat” konseptual g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib boradi. Shuningdek, oilaning reproduktiv salomatligi va demografik rivojlanishini ta‘minlash, oilaning ichki va shaxslararo munosabatlarini boy madaniy, tarixiy meros va an‘naviy oilaviy qadriyatlar asosida yo‘lga qo‘yish, bu borada fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlarni o‘tkazish pirovardida oila institutini mustahkamlash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmonida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va

to‘g‘risida”gi 18.02.2020 yildagi PF-5938-sonli Farmoni. //https://lex.uz/ru/docs/-4740345

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 18.02.2020 yildagi PF-5938-sonli Farmoni. //https://lex.uz/ru/docs/-4740345

ilmiy-tadqiqot markazi negizida “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etish belgilangan edi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 15 sentyabrdagi 553-son Qarori bilan Nodira Melibaevna Egamberdieva O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutining direktori etib tayinlandi<sup>4</sup>.

Institut Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi hamda “Mahalla” o‘quv-uslubiy va ilmiy-tadqiqot markazining huquq va majburiyatlari, shuningdek, tuzilgan shartnomalar bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi<sup>5</sup>.

Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi Murojaatlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i Jamshid Nazarboyev ma‘lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda yurtimizda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan aholi murojaatlarining ko‘rib chiqilishini ta‘minlashda samarali va zamonaviy mexanizmlarni joriy etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilayotgani, jumladan, 2020 yilning oktabr oyida ishga tushirilgan vazirlikning 1146 Ishonch telefoni mahalla tizimi faoliyatini yanada takomillashtirish, ayniqsa, xotin-qizlar va oila masalalariga oid muammolarni tezkorlik bilan aniqlash hamda ularga zarur yechim topishda amaliy o‘z ahamiyatini ko‘rsatmoqda.

2020 yilning 27 oktabridan bugungi kunga qadar Ishonch telefoni orqali aholidan 5287 ta murojaat qabul qilinib, ularga tizimli ravishda yechim topilayotgani aytib o‘tildi. Murojaatlar esa asosan moddiy yordam va ijtimoiy nafaqa tayinlash, oilaviy masalalar, oilaviy tazyiq va zo‘ravonlik hamda oilaga uchinchi shaxsning aralashuvi, xotin-qizlarga imtiyozli kredit asosida uy-joy ajratish, xotin-qizlar bandligini ta‘minlash, pandemiya munosabati bilan fuqarolarni moddiy yordam, oziq-ovqat bilan ta‘minlash yuzasidan bo‘lgani qayd etildi.

Jahon hamjamiyati tomonidan xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan e‘tibor, xalqaro huquqiy hujjatlarni yaratishga asos bo‘lib keldi. Xotin-qizlarning jamiyatda, davlatda tutgan o‘rni, mavqei, ularga yaratilayotgan sharoitlar O‘zbekistondagi qonunchilikni xalqaro standartlar darajasiga ko‘tardi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi qonunida oilalarga yangi imkoniyatlar belgilangan. Jumladan, ushbu qonunning 24-moddasi “Oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari” deb nomlangan. Unda belgilangan yangi qoidaga ko‘ra, “Bola tug‘ilishi munosabati bilan ona ham, ota ham haq to‘lanadigan ta‘til olish huquqiga ega. Bolani parvarishlash bo‘yicha ta‘tilning davomiyligi ota-onaning ixtiyoriga ko‘ra ular o‘rtasida bo‘linishi mumkin, bunda ota-ona ta‘tildan uni qismlarga bo‘lgan holda foydalanishi mumkin”.

<sup>4</sup> “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot institutiga direktor tayinlandi. // <http://moqqv.uz/uz/news>

<sup>5</sup> “Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etildi. // <https://yuz.uz/uz/news>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev oilani mustahkamlash borasida tub islohotlarni amalga oshirishda yangi strategiyalarni belgilab bermoqda.

2018-yil 24-iyul kuni Shavkat Mirziyoyevning Facebook ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy sahifasida davlat rahbari tavalludining 61 yilligiga bag‘ishlangan “Janob Prezident” nomli hujjatli filmda - “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qati nazar, kim bo‘lishidan qati nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada xalollik, munosabat, tarbiyaga alohida etibor bermasa, hech qachon natija bo‘lmaydi. Shuning uchun men farzandlarimninu tarbiyasiga juda katta etibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o‘zinning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini, istagini bilaman”,- dedi u. “Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman” , - deya ta’kidladi prezident .

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 18-fevralda “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmon elon qildi<sup>6</sup>.

Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etish belgilandi. Ushbu vazirlik oldidagi dolzarb vazifalar:

➤ jamiyat va oilada sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish;

➤ oilalar va mahallalardagi ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan yaqin hamkorligini o‘rnatish;

➤ oila institutini mustahkamlash bo‘yicha, eng avvalo, “Sog‘lom oila — sog‘lom jamiyat” g‘oyasini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan yagona davlat siyosatini olib borish, notinch va muammoli oilalarga manzilli ko‘maklashishni tashkil etish;

➤ ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashda huquqiy, uslubiy va amaliy yordam ko‘rsatish kabi dolzarb vazifalar ekanligi ko‘rsatilgan<sup>7</sup>.

Hozirda ushbu faoliyat bo‘yicha tashkiliy vazifalar amalga oshirilmoqda. Oilani qo‘llab-quvvatlash dolzarb masala sifatida oldimizda turibdi. Bu jarayonda ayrim jihatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq: keyingi paytda yangi oilalar uy-joy muammosiga duch kelishmoqda. Agar oila ajralib ketsa, ayol va bolalarda eng yomon muammo turar-joy masalasi hisoblanadi. Shuni e’tiborga olib, har bir quriladigan oilani

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 18.02.2020 yildagi PF-5938-sonli Farmoni. //https://lex.uz/ru/docs/-4740345

<sup>7 7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 18.02.2020 yildagi PF-5938-sonli Farmoni. //https://lex.uz/ru/docs/-4740345

turar joy masalasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq:

Oilani iqtisodiy muammosi ham oilalar kelajagiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Shuni e'tiborga olib, oila kodeksidagi nikoh shartnomasi masalasini qonun chiqaruvchi organimiz qayta ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq. Nikoh bitimi to'g'risida qabul qilinadigan qonunda nikoh tuzishdan oldin majburiy, notarial tasdiqlangan nikoh kelishuvi tuzish va tasdiqlanishi kerak. Bugun dunyoda globallasuv jarayonlari hukm surayotgan bir paytda O'zbekistonda oila institutini mustahkamlash va takomillashtirish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Oila siyosati borasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha to'plangan tajriba asosida uni amalga tatbiq etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni rivojlangan davlatlarning oila sohasidagi qonun hujjatlarining ishlab chiqilishi va uni amalga qo'llash tizimi sohasidagi ilg'or tajribasi va barqaror rivojlanish dasturlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda oila institutini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish mexanizmini yaratish maqsadida quyidagi asosiy yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim:

**Birinchidan,** oila institutini mustahkamlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishni o'z ichiga olgan zamonaviy normativ – huquqiy va metodologik bazani yaratish;

**Ikkinchidan,** oila institutini mustahkamlash sohasidagi ilmiy tatqiqotlarning tashkiliy – texnik asoslarini takomillashtirish shuningdek, oila bo'yicha ixtisoslashgan maxsus tatqiqot markazlarini tuzib, uning samarali faoliyat olib borishini ta'minlash maqsadida mustaqil tashkilot maqomini berish orqali shu maqsadga erishish. Ushbu idoraning kadrlar salohiyatiga alohida e'tibor qaratgan holda malakali va zarur ko'nikmalarga ega mutaxassislarni jalb etish uchun zarur shart – sharoitlar yaratish;

**Uchinchidan,** sohada faoliyat olib borayotgan idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirib, oilani rivojlantirish masalalari bo'yicha davlat, fuqorolik jamiyati institutlari va xususiy sektor hamkorligini jamoatchilik tomonidan nazorat qilinishini yo'lga qo'yish va rivojlantirish;

**To'rtinchidan,** oila manfaatlarini qo'llab – quvvatlash sohasida xalqaro hamkorlik o'rnatish bo'yicha chora - tadbirlarni amalga oshirish. Bu esa o'z navbatida o'zaro tajriba almashinishni rag'batlantirishni ta'minlaydi va joriy etilayotgan tizim samaradorligi darajasining xorijiy ekspertlar tomonidan baholanishiga zamin yaratadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirish maqsadga muvofiq.

– oilaviy nizolarning, ajralishlarning oldini olish bo'yicha mutaxassislar va maslahatchilar ishining zamonaviy usullari va vositalarini xalqaro tajriba asosida



o'rganish;

– oilalar, ayollar va bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislarning salohiyatini oshirish uchun maxsus o'quv dasturlarini yaratish;

– oilalarni mustahkamlash va nogiron farzandlar tug'ilishining oldini olish maqsadida FXDYo xizmati qoshida yaqin qarindoshlikni aniqlab beradigan maxsus ma'lumotlar bazasini yaratish;

– jamiyatda oilaning maqomini saqlab qolish va mustahkamlash maqsadida barcha soliq chegirmalar oilaga qaratilishi chora – tadbirlarini ishlab chiqish;

– bugungi kunda farzandlar parvarishi bilan shug'ullanayotgan yolg'iz onalar va yolg'iz otalarga ijtimoiy himoyani majburiy joriy etish;

– o'zbek mentalitetining asl qadriyatlaridan bo'lgan keksa avlod vakillarini e'zozlashni yoshlar tarbiyasiga singdirish keksa avlod tajribasidan foydalanish;

Oilada sog'lom muhit va sog'lom munosabat qaror topsa oilada ham, millat va jamiyatda ham sog'lom muhit mavjud bo'ladi. Oila inson kamolotining bosh bo'g'ini, davlat tizimining eng muhim instituti, jamiyatimiz o'zagi, negizidir. Shuning uchun ham oilani sajdagoh, vatan ostonadan boshlanadi, deymiz. Shu bois ham davlat siyosatining ustivor vazifalardan biri oila farovonligini ta'minlashdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda, 37-son, 982-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son, 01.05.2021-y., 06/21/6217/0409-son) <https://lex.uz/docs/-3107036>

2.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy - amaliy tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 229-son Qarori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 2-ILOVA <https://lex.uz/docs/-3107036>

3."O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 3808-son Qarori, (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.06.2018-y., 07/18/3808/1410-son; 11.12.2019-y., 06/19/5892/4134-son) <https://lex.uz/docs/-3797625>

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori "Xotin - qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari

to'g'risida"gi 2020-yil 4-yanvar,3-son Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.01.2020-y., 09/20/3/0018-son, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son; 12.03.2021-y., 09/21/132/0202-son) <https://lex.uz/docs/-4676892>

## II. Asosiy adabiyotlar

5. Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: “Aloqachi”, 2019. – B. 78-92.
6. “Oila” ensiklopediyasi. — T.:2016 y
7. Oynisa Musurmanova. Oila jamiyat tayanchi. –T.: “Yoshlar nashriyot uyi”,2019.

## III. Dissertatsiya va avtoreferatlar

8. Rasulova Z. A “O‘zbeklarda oila - nikoh an‘analarining ijtimoiy va etnik psixologiyasi”. Psix. fan. dok. (DSc)...dis.2019.
9. Mamadaliyeva X. X “O‘zbekistonda oila rivojlanishining ijtimoiy – demografik xususiyatlari”. Iqt. fan. doktori. (DSc) dar. olish uchun yozilgan...dis.2019.
10. G. Barnoyeva-“ O‘zbekistonda oila manfaatlari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi” magistrlik dissertatsiyasi 2021-y.

## IV. Internet saytlari

11. <http://www.lex.uz>. (O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)
12. <http://www.norma.uz> (Huquqiy axborot portali)
13. <http://www.uza.uz> (O‘zbekiston milliy axborot agentligi )
14. <https://www.president.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti)
15. <http://moqqv.uz/>(Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi)
16. <https://moiti.uz/> (mahalla va oila ilmiy tadqiqot instituti)